

## IRODA, MATONAT VA SABOT MALIKASI

*Sodiqjonova Sevinch*

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
“Jinoiy odil sudlov” fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada birinchi o‘zbek huquqshunos ayoli Xadicha Sulaymonovaning tug‘ilgan yili, oilasi, Adliya vaziri bo‘lganida qilgan islohotlari, Toshkentda tashkil etilgan birinchi ilmiy konferensiyaga o‘zi bosh-qosh bo‘lganligi, konferensiya yuqori darajada o‘tkazilganligi, kodekslarni tayyorlashda o‘zi rahbarlik qilgani haqida ma’lumot berilgan.

**Kirish so‘zlar:** ota, ona, opa, uka, aka, singil, shoira Zulfiyaxonim, Andijon, Adliya vaziri, kodifikatsiyalash.



Yurisprudensiya sohasiga ulkan hissa qo‘shgan Xadicha Sulaymonova haqida qancha eslasak, gapirsak, shuncha oz.Xadicha Sulaymonova 1913-yil Andijon viloyati ziyolilar oilasida tavallud topgan.Otasi Sulaymon Kelginboyev savodli insonlardan biri bo‘lib, Andijon shahridagi karvonsaroylardan birida ish boshqaruvchi va tilmosh bo‘lib ishlagan. Manbalarga ko‘ra, Sulaymon aka turkman, qozoq, qirg‘iz, tojik, rus tilida gaplasha olgan.Onasi Otincha o‘qimishli va irodali ayol bo‘lgan. 1919-yilda Sulaymon Kelginboyev vafot etganida, Otincha bolalarini olib, Qozog‘istonga

ketib, o‘sha yerda bolalar uyiga ishga kiradi.Uch yildan keyin o‘z vatani bo‘lgan Andijonga qaytib, pilla zavodiga ishga kirgan.Otincha qancha qiyinchiliklar ko‘rsa ham, farzandlarini birovdan kam qilmaslikka harakat qilgan. Xadicha Sulaymonova oilada uchinchi farzand edi.Uning opa, aka, uka, singlisi bor edi. Ularning ismlari:Yusufjon,Mo‘tabar, Niyozbek va Gulbahromdir.

Xadicha Sulaymonova 1944-yil prokuratura tizimida ishlayotgan Bek Sherxo‘jayev bilan turmush qurgan.Ularning 1945-yilda tug‘ilgan Shavkat ismli o‘g‘li bor.Shoira Zulfiyaxonim o‘zining xotiralarida Xadicha Sulaymonovaning onalik latofatini quyidagicha ta’riflaydi: “.....Men yurtimizning bu farzandi bilan iftixor qilardim, o‘zbek xalqiga uni bergan taqdirdan minnatdor edim.Biz elliginchi yillarga kelib qattiq do‘stlashib ketdik, bir birimiz bilan uchrashuv shodlikdan tashqari, ma’naviy ehtiyojga aylanib qoldi.Nazarimda, biz bir-birimizning qaysidir

jihatlarmizni to‘ldirib borardik...Men hozir ham uning aziz, beqiyos barkamol qiyofasini ko‘rib turibman:iroda va sabot malikasi bo‘lmish bu juvon, yorqin iste’dodli Arbob, ezgu Ona edi !”

Xadicha Sulaymonova 1956-yilning sentabridan boshlab respublika Adliya vaziri sifatid faoliyat yuritgan.U vazirlik davrida asosiy masalalarni yakkaboshchilik prinsipi asosida amalga oshirgan.Uning tashabbusi bilan muhokomalarda faqatgina amaliy masalalar emas, balki moddiy va protsessual huquqni to‘g‘ri qo‘llanilishi ham kiritilgan.Ularga sotsialistik mulkni o‘g‘irlash, transport avariya, bezorilik, nafaqa undirish va boshqa masalalar kirgan.Adliya vazirligida jinoyat, jinoyat-protsessual, grajdan, grajdan-protsessual, mehnat, yer-suv, nikoh-oila kodekslariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga takliflar kiritgan, ularning ko‘pchiligi ma’qullangan va hayotga tatbiq qilingan.

1957-yil 11-fevralda bo‘lib o‘tgan SSSR Oliy Sovetining oltinchi sessiyasida sud tuzilishi haqidagi qonunlarni, grajdanlik, jinoyat va protsessual kodekslarni qabul qilish huquqini ittifoqdosh respublikalarning o‘zlariga berish haqida qonun tasdiqlangan.

Xadicha Sulaymonova sud ekspertizasini, sud-tergov organlari ish sifatini yaxshilashga e’tibor qartagan, kriminalistika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga harakat qilgan.U Toshkent Kriminalistika ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini kengaytirishga va uning bazasida sud ekspertisasi ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etishni xohlagan.1958-yil 24-yanvarda bu institut tashkil etilgan va o‘z faoliyatini 1958-yil 1-apreldan boshlagan.

1959-yil fevralida Toshkentda qonunlarni kodifikatsiya qilishga bag‘ishlangan tadbir tashkil etilgan.Unda O‘zbekiston SSR, Qozog‘iston SSR, Qirg‘iziston SSR, Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR vakillari ishtirok etgan.SSSR Oliy sudi raisining o‘rinbosari, harbiy kollegiya a‘zosi V.Borisoglebskiy Xadicha Sulaymonovaning respublikalararo ilmiy konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishdagi rolini she’r orqali ifodalagan:

JK va JPK taptayyor,  
Qizg‘in muhokama, bahslar tindi,  
Ittifoq qonuni asosida bor –  
Mazmun mahalliy qonunga singdi.  
Bilim nuri yorqin nutqingizda jo,  
So‘zingizdan tashna dillar bahramand.

O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Prezidiumining majlisida konferensiya yakunlari muhokama qilinib, Xadicha Sulaymonovaga rahmatnoma qayd etilgan.1959-yil 21-mayda respublika Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslar tasdiqlanib, ushbu hujjatlar 1960-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan.Grajdan va grajdan – protsessual qonunlarini 1961-1963-yillarda tayyorlashga yordam bergan.

Xadicha Sulaymonova London, Sofiya, Qohira, Tokio, Dehli, Praga, Kolomboda o‘tkazilgan ilmiy anjumnlarda faol qatnashgan. Bu anjumanlarda o‘zini yurisprudensiya va oila sotsiologiyasi muammolari bo‘yicha chuqur bilimga ega ekanligini isbotlagan. Masalan, U Qohirada konferensiyasida qatnashish bilan cheklanib qolmasdan, Birlashgan Arab Respublikasi xotin-qizlar harakati va xotin – qizlar tashkiloti, maktab, universitet va madaniy-oqartuv muassasalar faoliyati bilan tanishib chiqqan. U qonunchilik va adliya organlarini qiziqish bilan o‘rgangan, shuningdek O‘zbekiston SSR qonunchiligi haqida ham ma’lumot bergan.

**Xulosa qilib aytganda**, Xadicha Sulaymonova vataniga muhabbati kuchli bo‘lgan irodali huquqshunos ayol. Bu olima ayolning hayot yo‘li barchamizga ibrat bo‘lishi kerak. Ish faoliyatlarida qonunlarni kodifikatsiya qilishlari, kodekslarni tayyorlashga yordam berishlari, amaliy muammolar bilan birgalikda nazariy holatlarni ham ko‘rib chiqishlari taqsimga sazovordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Хадича Сулаймонова – ҳуқуқшунос, олима, давлат арбоби М.Ҳакимов, Ғ.Ахмедов, А.Саидов. –Т.Ўзбекистон, 1993. – 151 б.
2. Уч машҳур ўзбек аёли.-Т.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. -214 бет.

#### **Internet saytlari:**

1. [sudexpert.uz](http://sudexpert.uz)